



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

### INTERNET TARMOG'IDA GENDER XUSUSIYATLAR VA AXLOQIY ME'YORLAR

Raxmonova Barnoxon Odilovna

AVPYMO'MM Tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi katta o'qituvchisi

#### Annotatsiya:

Mazkur maqolada zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalardan biri bo'lgan genderlingvistikaning ahamiyatli jihatlaridan biri internet tarmog'ida gender xususiyatlar va tarmoqda ahloqiy me'yorlar va qoidalarga amal qilish, erkak va ayolning internet muloqoti bo'yicha tahlil, ular o'rtasidagi liksik jihatlar haqida fikr yuritiladi.

**Kalit so'zlar:** Internet, ijtimoiy tarmoq, tarmoqlar, axborot, axloq, foydalanuvchi, gender genderlingvistika, leksik jihatlar, tilshunoslik.

Insoniyat tarixida axloqiy masalalar har bir davr va har bir yurt, har bir millat uchun dolzarb bo'lib kelgan. Bugungi kunda tezkorlik bilan rivojlanib borayotgan fan-texnika taraqqiyoti mazkur masalaga, tamoman, yangicha yondashuvni talab qilmoqda. Zero, axborot va lingvistik masalalar zamonaviy dunyoda muhim ahamiyat kasb etib, bu makon yangi texnologiyalar ta'sirida o'zgarib bormoqda. Unternet yordamida axborot yig'ish va uzatish ,shu bilan birgalikda sun'iy yo'ldosh, uyali aloqa , har xil raqamlı texnologiyalar orqali ham osonlashdi. Shu ma'noda, foydalanuvchilardan tashqari davlatlar o'rtasida ham o'zaro aloqa va kommunikatsiya boshqaruv vositasiga aylandi. Ijobiy harakterli ma'lumotlar bilan birga salbiy munosabatlarni aks ettirgan ma'lumotlar insonlar onggiga ,asosan , bugungi kunda yoshlarning onggiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot sohasida internet so'z erkinligini yuzaga keltiradi. Mana shu "So'z erkinligi" dan foydalanib, aksariyat yoshlar global taqmoqda o'zi xohlagandek, na biror foyda, na biror axloqiy me'yorga rioya etishni o'ylab ham ko'rmay, muloqotga kirishadilar. Jamiyatda internet paydo bo'lishi bilan ayrim hollarda axloqiy jihatlarga darz ketish, muloqot qoidalarini buzish, qadriyatlar qadrsizlanishi holatlari yuz bermoqda. Millionlab yoshlar internet tarmog'ida muloqot qilar ekanlar , axborot almashar ekanlar ,buni lingvistik tahlil qilib chiqilganda, gender hususiyatlari ochiladi, yanada kengroq namoyon bo'ladi. Ayrim yoshlar so'z erkinligidan foydalanib, istiqomat qiluvchi manzillarini, xattoki, xohish- istaklariga qarab, ismlarini yashirgan yoki o'zgartirgan



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

holda internet orqali muloqotni amalga oshiradi. Haqiqiy axborotni yolg'ondan ajratib ololmaslik darajasida muloqot qilinadi. Hayotda o'zlariga erkinlik topmagandek ko'rinish, bemalol internetda erkin muloqotni amalga oshiradi. Natijada foydalanuvchilar boshqa suhbatdoshiga zarar yetkazishi, shahsiy daxldorlik qilishi, yolg'on guvohlik berishi, ruhsatsiz ma'lumotlarni yig'ishi kabi holatlar kuzatiladi. O'z ismlarini laqablarga, joy nomlariga, mevalar va boshqa rasmi, animatsiya ko'rinishlariga almashtirib faydalanadilar. Masalan: Gulnoza – Gulya, Jamshid-Jo'xa, Sardor –Sasha, Barchinoy –Baxt yoki turli jumlalar bilan; Akram- Alhamdulillah, Muhabbat- Musluma, Mohira- moxish001, Ilhom-Irik 2005 kabi jumlalar bilan ifodalab kelmoqdalar. Bundan tashqari, gender tenglikka erishish maqsadida erkak va ayol internet muloqotida ayrim vulgarizm, varvarizm, jargon kabi turli parolli, ananimli jumlalardan har ikki jins vakillari bemalol foydalanmoqdalar. Turli xil videolar, materiallar, giflar, animatsiyalar va rasmlardan til birliklari o'rnida, nafis so'z san'ati qoidalariga zid, axloqiy me'yorlarni buzgan holda foydalanib kelinmoqda. Bunday muloqot jarayonlarida tilning fonetik, leksik, morfemik qoida buzilishlari, imloviy, ishoraviy, stilistik xatolar yuzaga kelmoqda. Erkak va ayol muloqoti internet tarmog'ida eng ko'p o'rin olgan jarayonlardan biridir. Foydalanuvchi ikki jins vakillari yosHLarining turli xilligiga va muloqotning nazoratsizligiga interaktiv faolligiga qarab o'z bilganicha xohlagan so'zlarni ishlatib suhbat qurishlari internet etikasiga to'g'ri kelmasligi ham achinarli xoldir.

Aloqa vositasi bo'lgan har bir manba orqali undan foydalanayotgan shaxsning xarakteri, odob-axloqi, so'zlash madaniyati tafakkurini bilib olish mumkin. Foydalanuvchilarning nutqidagi lihvisnik xususiyatlarni, muloqot jarayonida uchraydigan genderelogik unsurlarni zamonaviy tilshunoslikning bugungi kunda keng o'rganilayotgan, yangi sohasi genderlignistikada tahlili yoritib beriladi. Bu sohada ayollar va erkaklar muloqot jarayonida qanday til birliklarini qo'llashlari haqida bayon qilinadi.

Tilimizda so'zlar uchraydiki ularning qo'llanishi ma'lum bir jins vakillari muloqotida uchraydi. Ayollarning nutqi erkaklar nutqidan farq qiladi. Liksik, grammatik va fonetik jihatdan ularda farq kuzatiladi. Tilshunos olimlar fikricha ayollar nutqining 30% iboralardan tashkil topgan. Ayollar va erkaklarning muloqotida qarama qarshilik yaqqol ko'zga tashlanadi.



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> April, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Hozirgi kunda internet muloqoti to'g'risida ijobiy va salbiy fikrlar ko'payib ketdi. Bu , albatta tabiiy holdir. Zero, jamiyat rivojlanishi bilan taraqqiyot sari paydo bo'lган yangiliklar bahslarga , tortishuvlarga sabab bo'lib kelgan va undan keyin ham uchraydi. Interet tarmog'ida tilning lingvistik xususiyatlariga salbiy ta'sirlarining muloqot jarayonlarida ko'rinishi, shu bilan birga, axloqiy me'yorlarga ta'sir qilishi, yoshlar ongiga salbiy ta'siri haqida so'z yuritishdan tashqari internet tarmog'ining afzallikkleri haqida ham keng ko'lamli fikrlar, misollar keltirish mumkin. Avvalo internet tarmog'ida muloqot qilish uchun talab ancha ortdi malum bir guruhlar shakllandi. Shu bilan birga, mazkur guruhlarda manfaatlar birligi asosiy maqsad va vazifa qilib belgilandi. Eng qimmatli bo'lган vaqt masalasi birinchi o'ringa chiqdi. Qisqa vaqt ichida ko'p maqsadlarni amalga oshishi mumkinligi isbotlandi. Billim olish, axborotlar yig'ish, axborotlarni taxrirlash, hisobotlar tayyorlash, ma'lumotlar uzatish kabilalar tez fursatlarda amalga oshiriladi.Kundalik hayotimizda uchraydigan oddiy muloqot qilishdan internetdagи muloqot qilish usullarining foydali tomonlari juda ko'p: tezkorlik bilan ma'lumot almashish,turli xil qulayliklar, istalgan joydan turib axborot olish, xabardor bo'lism , xabar berish, ishlarni tez bitirish va hokazolar.

Xulosa qilib aytish mumkinki, zamonaviy tilshunoslikning yangi sohalaridan biri bo'lган genderlingvistikaning ahamiyatli jihatlaridan biri internet tarmog'ida gender xususiyatlar va tarmoqda ahloqiy me'yorlar va qoidalarga amal qilish, erkak va ayolning internet muloqoti bo'yicha tahlil, ular o'rtasidagi liksik jihatlar haqida yanada ko'proq o'rganish, izlanish, tadqiqot qilish til nazaryasi va kompyuter lingvistikasi fanining dolzarb masalalaridan biri bo'lib qolaveradi va u shu fan rivojiga hissa qo'shadi.

### Foydalanigan adabiyotlar:

1. Internetda muloqot qilishning asosiy usullari internet aloqasi vositalari.Toldo.ru
- 2.Jichkina A. "Virtual muloqotning zamonaviy tadqiqotlari: muammolar, farazlar, natijalar"